

ALISHER NAVOIYNING “LAYLI VA MAJNUN” DOSTONIDA BADIY
SAN’ATLARNING QO‘LLANISHI

Abdiraimova Musharraf Usmon qizi
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU
O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti
2-kurs magistratura talabasi
musharraf7499abduraimova@gmail.com
+998330761919

Annotatsiya: Mumtoz adabiyotimizda ijodkor salohiyatiga baho berishda uning qanday tasvirdan foydalanganiga alohida e’tibor qaratilgan. Adabiy asarlarda she’riy san’atlardan foydalanish mahorati har doim ham badiiy san’atkorlikning asosiy qirralaridan biri sifatida baholangan. She’riy san’atlar haqida gap ketar ekan, ijodkorning badiiy asar orqali ko‘zlagan g‘oyasining hayotiyliigi, ta’sirchanligi, lirik va epik timsollarni yorqinroq gavdalantirishda, misralar va bandlarning nazokatli va musiqiy ohangdorligini yuzaga keltirishda she’riy san’atlarning xizmati kattadir.

Turkiy adabiyotning mutaffakkir shoiri Alisher Navoiyning Xamsa asari mavzu yo‘nalishi, qahramonlar silsilasi, g‘oyaviy-badiiy xususiyati jihatidan qancha o‘rganilsa, asar tarkibidagi dostonlarning ochilmagan qirralari namoyon bo‘ladi. Ushbu maqolada Alisher Navoiyning “Layli va Majnun” dostonida badiiy san’atlarning qo‘llanishi bilan bog‘liq poetik tasvirlar misollar yordamida tadqiq etiladi.

Kalit so‘zlar: g‘azal, lirik va epik timsollar, ma’naviy san’atlar, musiqiyliigi, mubolag‘a, ig‘roq, tablig‘, g‘uluv, xusni ta’lil, tajnis, tanosub, badiiy timsol, ruju’, o‘xshatish, oshiq, his-tuyg‘u.

Annotation: In our classic literature, special attention is paid to the image used by the artist in assessing his potential. The ability to use poetic arts in literary works has always been evaluated as one of the main aspects of artistic artistry. Speaking of poetic arts, the service of poetic arts in vividly embodying lyrical and epic symbols, the vitality and impressiveness of the creator's idea through an artistic work, and the graceful and musical melodiousness of verses and stanzas. is big. The more the Khamsa work of Alisher Navoi, a thinker poet of Turkic literature, is studied in terms of its theme direction, series of characters, ideological and artistic features, the more the undiscovered aspects of the epics contained in the work are revealed. In this article, Alisher Navoi's poetic images related to the use of artistic arts in the epic “Layli and Majnun” are studied with the help of examples.

Key words: ghazel, lyrical and epic symbols, spiritual arts, musicality, mubolag‘a, ig‘roq, tablig‘, g‘uluv, xusni ta’lil, tajnis, tanosub, artistic representation, ruju’, simile, in love, emotion.

Sharq mumtoz adabiyotida azaldan “so‘z” ga munosabat yuksak bo‘lgan. Mumtoz shoirlarimiz jumladan, Alisher Navoiy ijodida ham “so‘z” ga munosabat yuksak bo‘lganligini uning har bir asarida, g‘azaliyotida yaqqol ko‘ramiz. Navoiy ijodi davomida o‘zigacha va o‘zidan keyingi buyuk shoirlardan eng ko‘p so‘z qo‘llaganligi bilan ham ajralib turadi. Shoirning ijodini o‘rganar ekanmiz, uning har bir so‘zni o‘z o‘rnida qo‘llaganligini ko‘ramiz va hech qaysi so‘zning, jumlaning takroran qo‘llanganligini uchratmaymiz. Shoir nasriy va lirik asarlarida so‘zlarni o‘z va ko‘chma ma’nolarida qo‘llab bir-biridan go‘zal tashbehlar yaratgan. Navoiy asarlarida turkiy til imkoniyatlaridan to‘laligicha foydalanib, bu tilning butun jozibasini ko‘rsatib bera olgan. Navoiy asarlarida har bir so‘zni mahurat bilan ishlatgan holda so‘z san’atining nafis namunalari yaratdi. “Xamsa” tarkibiga kiruvchi dostonlarda jumladan, “Layli va Majnun” dostonida so‘z qo‘llashda mohirlik bilan yondoshganligining guvohi bo‘lamiz. Shoir nasriy hamda lirik asarlarida badiiy san’atlardan, so‘zlarning o‘z va ko‘chma ma’nolaridan foydalangan holda bir-biridan jozibador asarlar yaratdi. Badiiy san’atlar mumtoz she’riyatda g‘azalning musiqiyliigini, o‘quvchiga tushunarli bo‘lishini ta’minlaydi.

“Ma’lumki, she’riy san’atlar badiiy asardan o‘rin olgan g‘oyalarning hayotiyroq, ta’sirchanroq ifodalanishiga, lirik va epik timsollarning yorqinroq gavdalanirishiga, misralar, baytlar bandlarning lafziy nazokati, musiqiyiligi, jozibadorligini ta’minlashga xizmat qilgan”[1] (Anvar Hojiahmedov. 1999)

Adabiyotshunosligimizda she’riy san’atlarni ma’naviy va lafziy san’atlar singari guruhga ajratamiz. Ma’naviy san’atlar asardagi g‘oyalarni yorqin ifodalash, lirik va epik timsollarni hayotiyroq gavdalanirish, ularning ma’naviy qiyofalarini, his-tuyg‘ularini, ta’sirchanroq aks ettirishga xizmat qilgan bo‘lsa, lafziy san’atlar asarning til jihatdan jozibadorligini, ohangdorligini, ta’minlashga yordam beradi.

Ma’naviy san’atlar quyidagilar:

Mubolag‘a— arabcha “kattalashtirish”, “ kuchaytirish” ma’nosini bildirib, adabiy asarda tasvirlanayotgan badiiy timsol holati yoki harakatini bo‘rttirib, kuchaytirib ifodalash uchun xizmat qiladigan san’atdir.

Mubolag‘aning tablig‘, ig‘roq va g‘ulu deb atalgan uchta turi mavjud. Tablig‘ aqlan ishonish mumkin bo‘lgan holatni ifodalaydi. Mubolag‘aning ikkinchi darajasi ig‘roq bo‘lib, u belgi yoki harakatni aqlan ishonish mumkin bo‘lsa ham hayotda yuz berishi mumkin bo‘lmagan tarzda ifodalaydi. Mubolag‘aning uchinchi darajasi g‘ulu deb atalib, u aql ham ishonmaydigan, hayotda ham yuz berishi mumkin bo‘lmagan holda tasvirlash usulidir. [1] (Anvar Hojiahmedov.1999)

Mubolag‘a san’ati haqida ilmi bade‘ga doir dastlabki manbalar U.Roduyoniyning “Tarjimon ul balog‘a”, Rashididdin Vatvotning “Hadoyiq-us sehr”, Shams Qays Roziyning “Almo‘jam”, Shayx Ahmad Taroziyning “Funun-ul balog‘a” asarlarida ma’lumot keltirilgan bo‘lib, mazkur asarlarda mubolag‘aning asosan, **ig‘roq** turiga to‘xtalib o‘tilgan. Ahmad Taroziy mubolag‘a haqida quyidagicha yozadi: “ Bu san’at aningdek bo‘lurkim, bir narsaning vasfinda mubolag‘ani had va g‘oyattin o‘tkarurlar”. A. Husayniyning “Badoye’-us sanoyi” asarida mubolag‘a va uning darajalari haqida nisbatan to‘liqroq ma’lumotlar uchraydi. Unga ko‘ra, muallif mubolag‘aning **tablig‘, ig‘roq, g‘uluvv, mardud g‘uluvv** kabi turlarini keltiradi. [2] (Tajixon Sabitova.2021)

A.Navoiy ijodida mubolag‘aning 3 darajasi ham keng qo‘llanilgan. Masalan,

Kecha kelgumdur debon ul sarvi gulru kelmadi.

Ko‘zlarimg‘a kecha tong otquncha uyqu kelmadi

(“Badoyi’-ul vasat” 608-g‘)

Bu yerda visol va’dasini bergan yorning kelmaganligi oqibatida oshiqning kechasi bilan uxlamay chiqishi mubolag‘a (tablig‘), lekin bu holatni aqlan tasavvur ham qilish mumkin va ba’zan hayotda ham uchrab turadi.

Ig‘roq— arabcha “kamonni qattiq tortmoq” aqlan ishonish mumkin bo‘lsa ham, hayotda uchramaydigan mubolag‘a turi hisoblanadi va Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonida Farhod Shirinning oti yiqilay deganda otni va Shirinni yelkasiga ko‘tarib, bir necha chaqirim yurishi hayotda sodir bo‘lishi mumkin bo‘lmagan hodisani ifodalagan.

Ko‘tardi orqasiga bodponi,

Nechukkim, bodpo, ul dilraboni.

Chu ikki-uch yig‘och gom urdi shaydo,

Bo‘lub ollinda qasru havz raydo.

(“Farhod va Shirin”)

G‘uluvv – (qo‘lni imkon boricha baland ko‘tarish) aql ham bovar qilmaydigan, hayotda ham sodir bo‘lishi mumkin bo‘lmagan mubolag‘a.

Har qizil gulkim, yuzing shavqida olib isladim,

Yetkach ohim shu’lasi, ani sorig‘ gul ayladim.

(“Favoyid -ul kibar” 426-g‘)

Sharq she’riyatida shoirlar mubolag‘a san’atidan keng foydalanishgan. Jumladan, Alisher Navoiy o‘zining g‘azallari, dostonlarida ham mubolag‘a san’atidan keng foydalangan. Xususan, “**Layli va Majnun**” dostonida ham mubolag‘aning yorqin namunalarini uchramiz.

Kunduz sanga bir gadoyi rusi,

Xurshiddin egnida kadusi.

Tun dargaxingga tilanchi zangi,

Egnida terisidur palangi.

Kunduz— sahroyi gadoga, tun esa qop-qora zangiga o'xshaydi. Navoiy g'am-anduhlarini Somon yo'lining behisobligiga qiyoslaydi va bu o'rinda mubolag'aning g'uluvv darajasini ko'rishimiz mumkin. Chunki Somon yo'lining kengligi, uzunligi cheksizdir va shoir aytayotgan g'amlar ko'p bo'lsa ham Somon yo'li kengligiga tenglasha olmaydi.

Bir mash'ala ila ko'zi munavvar,

Kim, uchquni erdi mehri xovar.

Bir mash'aldan ko'zi yorug'langan ediki, bir uchquni sharq quyoshi edi.(ig'roq) Bu yerda aql ishonishi mumkin bo'lgan, ammo hayotda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan holat tasvirlanib, mubolag'aning *ig'roq* darajasi yuzaga kelgan.

Xusni ta'lil

Xusni ta'lil "arabcha, chiroyli dalillash" ma'nosini bildiradi. Asarda tasvirlanayotgan biror hodisaga shoirona sabab ko'rsatish san'ati demakdir. Sharq she'riyatida ko'plab shoirlar, jumladan, A. Navoiy ko'plab g'azallarida xusni ta'lil san'atiga murojaat qilgan:

Qatra qonlarkim tomar ko'ksimga urg'on toshdin,

Zahmdindir demakim, qon yig'lar ahvolimg'a tosh.

Ushbu misralarda shoir hijron azobiga chiday olmagan oshiq ko'ksiga tosh urayotganligi va ko'ksidan qonlar tomayotganligini, bu qonlar jarohatdan emas, balki, g'amning kuchliligini ko'rgan toshning ko'zidan qonlar oqayotganligi bilan izohlaydi.

She'riyatda xusni ta'lil san'ati tabiat hodisalariga, hayotiy holatlarga, samoviy mavjudotlar holati, harakatini g'ayri tabiiy izohlash yo'li bilan xusni ta'lil san'atiga murojaat qilinadi. Bundan tashqari, turli hayotiy hodisalar, o'simlik, mevalar, ashyolar holati zaminida ham xusni ta'lil san'atiga asoslanadi.

Band ayog'ida nedindur boshida savdo o'ti,

Ey pari, ishqingda har xud bo'lmamish Devona sha'm?

(Navoiy)

Shamning ko'rinishini shoir muhabbat dardida devona bo'lgan odamga o'xshatib, tabiiy bo'lgan holatni xusni ta'lilga olib g'ayritabiiy tarzda izohlagan.

Xusni ta'lil san'ati ko'pincha she'riyatimizda mavjud turli diniy va tarixiy afsonalarning qahramonlarining nomlari, ularga nisbat berilgan voqealar zaminiga ham quriladi.

Xusni ta'lil san'ati tashxis (jonlantirish) san'ati bilan birga, ya'ni xusni ta'lil tashxisga asoslangan holda ifodalanadi. Bunday ifodalash A.Navoiyning dostonlari, g'azallari jumladan, "**Layli va Majnun**" dostonida ko'plab uchraydi.

Misollar:

Bukim, sanga charx xoki rohdur,

Me'roj tuni munga guvohdir. [3] (Alisher Navoiy)

Navoiy dostonning III bobida Muhammad (s.a.v) ga na't keltirganda ham payg'ambarimizning Me'roj tuni osmonga ko'tarilishi voqeasini xusni ta'lil san'ati orqali go'zal ifodalaydi. Bu yerda shoir falak ham katta yo'l kabi sening poyingdadur va buni me'roj kechasida isbotlaydi tarzida ifoda etadi.

Har Turi fazilat uzra Muso,

Ham Qofi qanoat uzra Anqo.

Muso emas ersa, kilki nag'u—

Javfi aro muzmar etti jodu?

Anqo gar emas nedin hamisha,

So'z Qofida uzlat etti pesha? [4] (Alisher Navoiy)

"Layli va Majnun" dostonining V bobidan olingan ushbu baytlarda Navoiy N.Ganjaviyning ta'rifini berar ekan, uni fazilatning Tur tog'idagi Musosi, qanoatning Qof tog'idagi Anqosi, agar u Muso bo'lmasa, nega uning qalami bag'riga jodu singdirilgan? Agar u Anqo bo'lmasa, nega

soʻz Qofida uzlatga chekinishni oʻziga odat qilib olgan deya **xusni taʼlil** (tarixiy va diniy afsonalarning qahramonlarining nomlari, ularga nisbat berilgan voqealarga nisbat berilgan) sanʼatidan foydalangan.

Ham xatlari shohrohi Bobul,

Ham kilkada javf chohi Bobul

Navoiy Xusrav Dehlaviyga taʼrif berarkan, uning yozadiganlari sahifadagi har bir nuqta bir balo, yuzdagi dilkash xoli edi, undagi yozuvlar Bobil mamlakatining katta yoʻliday, qamish qalamining ichi esa Bobil chohidir, uning sehrli qalami hiylakor, ham isteʼdodi joduli, sehrgardir deya goʻzal tarzda tasvirladi. Ushbu baytdagi Bobil soʻzi (qadimda yer yuzidagi ilk yozuvlar Bobilda paydo boʻlganligi haqidagi afsonaga ishora qiladi) orqali ham **talmeh**, hamda **xusni taʼlil** sanʼatlari yuzaga kelgan boʻlsa, yozadigan har bir nuqtasi bir baloday, qamish qalamining ichi Bobil chohi, yozuvlar esa Bobilning katta yoʻliday deya **mubolagʻa sanʼatining gʻuluv** darajasini yuzaga keltirganligini koʻrishimiz mumkin.

Tun dahr yuzidin oritib meng,

Kunduzni tutmayin oʻziga teng,

Kunduz uyolib bu holatidin,

Kim, yerga kirib hijolatidin,

Bu ishga kulub sipexri xazro,

Kim, tishlarin aylab oshkoro.

Tun jahon yuzidan xolini aritdi, oʻziga kunduzni teng tutmadi. Kunduz uning bu holatidan uyalib, xijolatga botgancha yerga kirib ketguday boʻldi. Bu esa moviy osmon kulgusini qistatdi. Binobarin, jilmayib tishlarini koʻrsatdi. Navoiy ushbu parchada **tashxis** hamda **xusni taʼlil** sanʼatini qoʻllash orqali chiroyli tasvir usuli hamda soʻzlarni chiroyli qoʻllash orqali maʼnoni yanada nozik ifodalashiga erishgan. Ushbu baytda qoʻllangan **xusni taʼlil** sanʼati tabiat hodisasi (tun va kunning navbatma navbat chiqishi) hamda samoviy hodisaga (moviy osmonning kulgusi qistashi) asoslangan.

Ochquncha yumub koʻz ul sipoh tez,

Bir-biriga tegib qilurgʻa xunrez. [5] (Alisher Navoiy)

Koʻz ochib yumguncha kipriklar ikki qoʻshindek, qon toʻkish uchun bir-biriga tashlanadi. Ushbu baytda ham shoir **xusni taʼlil** sanʼatiga asoslanib, yaʼni koʻzlarning ochilib yumilishi va bu har ochilib yumilganida kipriklarning ikki qoʻshin kabi bir-birlariyla jang qilayotganini nozik ifodalaydi.

Togʻ bagʻrida sel yoʻqki, har tosh,

Farhod firoqidin toʻkar yosh.

Sahroda ne lola boʻlsa barbod,

Parvez kulohidin berur yod. [6] (Alisher Navoiy)

Togʻ bagʻrida sel emas, balki toshlar ham Farhod firogʻi (ayriligʻidan) yosh toʻkadilar, sahroda uchgan lola yaprogʻlari Xusrav Parvez kulohini eslatadi. Navoiy bu baytdagi **xusni taʼlil** sanʼatini tarixiy afsona qahramonlari nomlariga (Farhod, Xusrav Parvez-) ularga nisbat berilgan voqealar zaminiga qurgan.

“Layli va Majnun” dostonida qoʻllanilgan yana bir **xusni taʼlil** sanʼati tabiat hodisasi yaʼni doʻl yogʻganida barcha oʻsimliklar, ayniqsa gullar shikast yetishini gʻayritabiiy tarzda ifodalab, goʻzal tasvir yaratganligining guvohi boʻlamiz:

Yosh gʻunchagʻa istamak boʻlib ish,

Jola tushub ogʻizgʻa boʻlur tish.

Yo gʻunchaki, kulgusin uzotur,

Davron toshi ogʻzini qonotur. [7] (Alisher Navoiy)

Yosh gʻunchalarga ish orttirib yogʻilgan doʻl uning ogʻziga tish boʻlib qadaladi, yoxud gʻunchalar kular ekan davron toshi ularning ogʻzini qonotadi. Gʻunchaning kulishiga qarshi davron toshi ularning ogʻzini qonotishini shoir **xusni taʼlil** sanʼati orqali ifodalagan.

Bu damki esib Nasimi navroʻz,

Gul atrini qildi majlisafro‘z,
Bog‘o‘ldi bahordin gulafshon .
Sunbul bu gul uzra kokulafshon.

Bu faslda azmi Gulshan etgay,
Bo‘ston haramini maskan etgay. [8] (Alisher Navoiy)

Hozir Navro‘z yellari esib, yig‘inlarga gul hidlarini ufurgan, bog‘ bahordan gullarga to‘lgan, sunbul esa gul ustiga kokillarini yoygan, bu faslda gulzorga kirib bo‘ston sahnini maskan qilgan kishi shod bo‘lib, har mushkuli oson bo‘ladi.

Ushbu baytdagi gul, gulzor, sunbul, bo‘ston so‘zlari **tanosub** badiiy san‘atini yuzaga keltirgan.

Tanosub lafziy san‘atlar turiga mansub bo‘lib, baytda ma‘no jihatidan bir-biriga yaqin tushunchalarni anglatuvchi so‘zlarni qo‘llab, ular vositasida obrazli ifodalar yaratish san‘ati demakdir.

Bulbul boshi uzra nag‘ma pardozi,

Ahvolig‘a navha aylab og‘oz.

Gul holig‘a chun nazora aylab,

Gulgun yoqasini pora aylab.[9] (Alisher Navoiy)

Bulbul boshi uzra sayrab, ahvolig‘a yig‘lar, qizil gul Qays holig‘a nazar tashlab, o‘z yoqasini pora-pora qiladi. Bu yerda bulbulning yig‘lashi, qizil gulning yoqasini pora qilishi **tashxis** san‘atini, bulbul va gul so‘zlari esa **tanosub** san‘atini vujudga keltirgan.

Kim, uyga sumanbari gulandon,

Chun bog‘din etti azm ul shom.

Olam aro chehradin gul ochib,

Xay birla gulob yerga sochib.

Zohir qilib ul gul-u gulobi,

Ishq o‘tidin o‘zga ob-u tobi.

Gul tanli sumanbar shom paytida bog‘dan uyi sari qaytar ekan, o‘z chehrasidan olamga gul sochib, yuzdagi ter bilan yerga gulob sochib, shu gul va gulobni namoyish etar, ishq o‘tidan yuzlari juda boshqacha bo‘lib ketgan edi. Bu yerdagi gul, gulob, sumanbar, gulandon so‘zlari **tanosub** san‘atini yuzaga keltirgan.

Gul bargiga sarv uzra manzil,

Ham sarvi ravoni gulag homil.

U (Layli) sarv tepasida ochilgan gul yoki gul ko‘tarib kelayotgan sarvning o‘zi edi, deya tasvirlangan baytda gul, barg, sarv so‘zlari orqali **tanosub** san‘atining yuzaga kelganligini ko‘ramiz.

Dur toj uza aybdin yiroqdur,

La‘l o‘lsa yonida yaxshiroqdur.

Toj ustida dur— har qanday nuqsondan holi. Uning yonida la‘l bo‘lsa, yana ham yaxshi. Navfal Laylining otasiga Majnundan sovchi yuborganida, Majnun bilan Laylining bir-biriga bo‘lgan muhabbatini ta‘riflab, Majnun ilm-hunarda tengsizdur, u go‘yoki tojning ustida dur kabidir. Agar shu durning yoniga la‘l (Layli) bo‘lsa, bu ikkisi bir-biriga yarashadi degan tashbexdan foydalanilgan baytdagi dur va la‘l so‘zlari ham **tanosub san‘atining** yasalishiga asos bo‘lganligini ko‘rishimiz mumkin.

Kim, tongla ul oyni hozir aylay,

Bir damda ishini oxir aylay.

O‘q ignasidin tikay libosin,

Xanjar suyidin ezay hinosin.

Tufroqqa solay qadi niholin,

Yerga kiyuray qoshi hilolin. [10] (Alisher Navoiy)

Ertaga Laylini topib, bir damda ishini tamomlay; o‘q ignasi bilan libosin tikib, xanjar suvidan xinosin ezayin. Uning nihol qaddini tuproqqa ko‘mayin-da, hiloldek qoshini yerga kirgizay. Dostonning XXIII bobida otasi Laylini o‘ldirmoqchi bo‘lib aytgan so‘zlaridagi o‘q, xanjar, tufroq va yer so‘zlari ham **tanosub san‘atiga** asos bo‘lgan.

Ul ko'nglini hajr chok qilg'on,
G'am jonini dardnok qilg'on.
Ul yerga yetishgan nogahondin,
Kim, ko'chmish edi qabila ondin.
Evruldi hamul damanni bisyor,
Ne aql, vale anga, ne his yor.

Hajr bilan ko'ngli burdalangan, g'am bilan joni kuygan Majnun, nogoh u yerga yetdikim, qabila undan ko'chib ketgan edi. Aql va hushdan begona holda u damanni ko'p aylandi. Ushbu baytdagi hajr va g'am, aql va hush so'zlari tanosub san'atini yuzaga keltirgan. (Daman-odamlar yashab, tashlab ketgan joy. Bu yerda Layli yashagan chodir o'rni.)

Berganga muforaqat balosin,
Yetkurdi muvosalat shifosin.
Bulbulniki qildi zor-u g'amnok,
Gul ko'nglagini ham ayladi chok.
Parvona guldoz-u so'zi andin,
O't sham'ig'a dog'i ro'zi andin.

Ayriliq balosiga giriftor bo'lganlarga vasl shifosini ham ato qildi. Bulbulniki zor-u g'amgin qildimi, gul ko'ylagini ham chok-chok etti. Parvonaning behad kuyib-yonishi, shamga o'tning nasib bo'lishi ham shundan. Ushbu baytdagi gul-bulbul, parvona-sham so'zlari tanosub san'atini yuzaga keltiradi.

Ey kishvari husn podshohi,
Husn ahli bu kishvarning sipohi.
Ey noz-u karashma bog'ida vard,
Ne vard, bahori nozparvard.

Majnunning Layliga yozgan javob maktubi baytida ham tanosub san'atini uchramiz. Gul, bog', atirgul, noz va karashma so'zlari **tanosub** san'atini yuzaga keltirgan.

Mumtoz adabiyotimizda xususan, Alisher Navoiy ijodida tanosub san'atiga misollarni ko'plab uchratishimiz mumkin.

Ruju' — arabcha "qaytish" shoir oldingi misra yoki baytda ifodalagan fikri, qo'llagan badiiy-tasviriy vositasidan qaytgandek bo'lib, keying misralarda undan ham kuchliroq ifoda berish san'atidir. Ushbu badiiy san'at mumtoz adabiyotimizda keng tarqalgandir. Juda ko'plab shoirlar Lutfiy, Bobur va A.Navoiylar ijodidan ruju' san'ati keng o'rin egallagan. Xususan, A.Navoiy g'azallarida va dostonlarida ham ushbu san'at orqali go'zal tasviriy ifodalar yaratgan. Shoirning "Layli va Majnun" dostonida ham ruju' san'atidan keng foydalanilganligini ushbu misollar orqali ko'rishimiz mumkin bo'ladi:

Bir sha'm ila hujlasi muzayyan,
Kim, charx uyi andin erdi Ravshan.
Sha'mi-yu, ne sha'm, chashmayi nur.
Nuriki, yomon ko'z olidin dur.

Turar joyi bir sham bilan bezangan, jahon uyi ham o'shandan ravshan bo'lgan, uni sham dema, balki nurlarning chashmasidir. (**Ru'ju**)

Naxli-yu, ne nahl, sarvi ozod,
Sarvi-yu, ne sarv, rashki shamshot.
Oyi-yu, ne oy, badri to'li,
Badri-yu, ne badr, mehri lom'i. [11] (Alisher Navoiy)

Ushbu baytda Navoiy **ruju'** san'atini qo'llash orqali (arab. "qaytish" — mumtoz she'riyatimizdagi o'xshatish usullaridan biri; shoir o'xshatish manbaini kuchaytirib, bo'rttirib ko'rsatish maqsadida o'sha manbaga (odatda yorga, mahbubaga) nisbatan bir yoki bir necha o'xshatish qo'llaydi va birinchi o'xshatgan fikridan qaytib, keyin undan ham kuchli ifoda beradi.) Yorni ta'riflab, uning nuri yomon ko'zlar makridan yiroqdir, uni nihol dema, balki sarv kabi xushqomatdir, sarv ham dema, balki shamshodga rashk soluvchidir. Uni oy dema, balki to'lgan oydur, to'lin oy ham emas, balki porloq quyoshdir deb yorni niholga, sarvga, shamshotga, oyga

o'xshatadi. Ya'ni Laylini avval niholga, keyin sarvga qiyoslaydi, so'ng yana undan qaytib, shamshodning rashki keladigan sarv ekanligini ta'kidlaydi.

Sahroyi latofat ichra lola,

Ne lolaki, mushkbo' g'azola.

Ushbu baytda ham shoir Laylini avval sahro lolasiga o'xshatib, keyin o'z tasviridan qaytib, mushk hidli ohuga o'xshaydi deydi.

Fursatni bori bilib g'animat,

Ka'ba sori qildilar azimat.

Chun bo'ldilar ul haramg'a mahram.

Yo'q, yo'q, ne haramki, arshi a'zam.[12] (Alisher Navoiy)

Buyerda ham shoir Ka'bani avval xaram deb ataydi, so'ng undan ham kuchli ifoda bilan "arshi a'zam" deya ta'riflab, **ruju'** san'atidan mahurat bilan foydalangan.

Ul o't aro bu zaifi g'amnok,

Qaysi g'amnok, balki xoshok.

Xoshok dema, shikasta mo're,

Joni yukidin tanig'a zo're.

Bu baytda ham shoir Qaysning iztiroblarini ta'riflar ekan, undagi ishq dardidan oshiq g'amgin, yo'q, g'amgin emas, balki xoshok singari sarg'ayib ketgan. Xoshok ham emas, deb fikridan qaytib, so'ng u chumoliga o'xshab qolgan, jonining

Yukidan taniga og'irlik bor deb ruju' san'ati orqali oshiqdagi dardni kuchli ifodalaydi.

Kim Navfal kim Arabdadur toq,

Yo'q, yo'q, ne Arab, toqi ofoq.

Ushbu baytdagi ruju' san'ati ham qahramonning sifatini kuchli ifodalashga xizmat qilgan.

Layli va Majnunning dafn qilinishida ham shoir **ruju'** orqali ta'sirli tasvir yaratadi.

Kirdi iki jism bir kafang'a,

Yo'q, yo'q, iki ruh bir badang'a.

Andoq tani dardnok birla

Yo'q, yo'qki, jismi chok birla.

Miskin men-u zor-I poybasta,

Yo'q, yo'qki, zaifi poshikasta.

Har bir mongishida yuz latofat,

Yo'q, yo'qki, sochib jahong'a ofat.

Bu boda birini mast qildi.

Ul birini mayparast qildi.

Yo'q, yo'qki, ikisi mast bo'ldi.

Ham ikkisi mayparast bo'ldi.

"Layli va Majnun" dostonida Navoiy ma'naviy va lafziy san'atlaridan mahorat bilan foydalanib, go'zal tasviriy ifodalar yaratgan. Har bir qo'llangan san'at muallif badiiy mahoratini go'zal tarzda ochishga xizmat qilgan. Alisher Navoiy ijodida ko'plab badiiy san'atlar orqali bir-biridan go'zal poetik tasvir namunalarini yaratganligini yuqoridagi misollar orqali ko'rishimiz va shoir ijodiga yuqori baho berishimiz mumkin.

Manbalar:

1. Anvar Hojiahmedov. Mumtoz badiyat malohati., "Sharq". Toshkent-1999, 11-b
2. Tajixon. Sabitova. Navoiy ijodida badiiy san'atlar. ACADEMIC RESERCH EDUCATIONAL SCIENCES VOLUME 2| ISSUE 4| 2021. ISSN:2181-1385. Scientific Journal Impact Factor (SJIF)2021:5.73
3. A.Navoiy. "Layli va Majnun" dostoni. G'afur G'ulom nashriyoti. Toshkent -2020. 14-b
4. A.Navoiy. "Layli va Majnun" dostoni. G'afur G'ulom nashriyoti. Toshkent -2020. 29-b

5. A.Navoiy. "Layli va Majnun" dostoni. G'afur G'ulom nashriyoti. Toshkent -2020. 63-b
6. A.Navoiy. "Layli va Majnun" dostoni. G'afur G'ulom nashriyoti. Toshkent -2020. 74-b
7. A.Navoiy. "Layli va Majnun" dostoni. G'afur G'ulom nashriyoti. Toshkent -2020. 74-b
8. A.Navoiy. "Layli va Majnun" dostoni. G'afur G'ulom nashriyoti. Toshkent -2020. 78-b
9. A.Navoiy. "Layli va Majnun" dostoni. G'afur G'ulom nashriyoti. Toshkent -2020. 82-b
10. A.Navoiy. "Layli va Majnun" dostoni. G'afur G'ulom nashriyoti. Toshkent -2020. 158-b
11. A.Navoiy. "Layli va Majnun" dostoni. G'afur G'ulom nashriyoti. Toshkent -2020. 62-b
12. A.Navoiy. "Layli va Majnun" dostoni. G'afur G'ulom nashriyoti. Toshkent -2020. 134-b